

## NOSIRUDDIN BURHONIDDIN O'G'LI RABG'UZIYNING „QISSASI RABG'UZIY” ASARIDAGI HIKOYALARNING DIDAKTIK TAHLILI.

**Umaraliyeva Azizaxon Ulmasali qizi**  
**Qulmuxamadova Ra'no Saydullo qizi**

*Termiz davlat universiteti talabalari*

*Ilmiy rahbar : Tuliboyev Sarvar*

**Annotatsiya:** *Maqolada Rabg'uziyning „Qissasi Rabg'uziy” asaridagi payg'ambarlarimizga oid bo'lgan turli xil mavzulardagi hikoyalar tahlil qilinadi. Ayni damda insoniyat uchun man qilingan, ya'ni xarom qilingan narsalar va amallar haqida to'laqonli sharhlab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ismoil alayhissalom, Is'hoq alayhissalom, Sora hazratlari, Ya'qub alayhissalom, tovus, qarg'a, o'rdak, tovuq, Uzayir alayhissalom, anjir va jiyda daraxti.*

„Qissasi Rabg'uziy” asari aslida payg'ambarlar qissasi hisoblanadi. Islomni turkiy qavmlar orasida keng yoyish, payg'ambarlar hayoti bilan ommani tanishtirish va payg'ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish uchun Berakxon hukmronligi davridan boshlab Oltin O'rda hukmdorlari astoydil harakat qildilar va bu asar ham payg'ambarlarning, avliyolarning hayot yo'li, faoliyati, mo'jizalari va bir qator xususiyatlari haqidagi asarlar sirasiga kirgizildi.<sup>3</sup>

Rabg'uziyning „Qissasi Rabg'uziy” asariga to'xtar ekanmiz, bu asar o'z zamonasining shox asarlardan biri ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz. Bu asarni bir marta o'qigan inson bot-bot o'qigisi kelaveradi, xuddi Alisher Navoiy „Mantiq ut tayr” asariga muhtalo bo'lgandek his qilasan kishi.

Yuqorida aytganimizdek, bu asarda barcha payg'ambarlarning ba'zida totli, ba'zida zahmatli hayot yo'llari ochib berilgan. Hattoki shunday hikoyalarni o'qiysizki, Ollohning qudratiga lol qolmay ilojingiz ham yo'qday tuyiladi. Ayniqsa, barchamizga kundek ravshan bo'lgan birgina anjir daraxtining nega gullamasligi, suvsiz ham yashash xususiyati va mevasining ham usti, ham osti insonlar tomonidan birdek iste'mol qilinishi aytilgan. Keling endi shu hikoyalarni birma-bir tahlil qiladigan bo'lsak, anjir hikoyasiga to'xtalamiz.

- Odam ato va Havo qilgan nomaqbul ishlari uchun Olloh tomonidan Jannatdan yerga surgun qilinayotganida ular avratlarini yopishi uchun anjir daraxti o'z barglaridan besh dona beradi va shu yaproqlarni berganligi uchun anjir daraxti jazolanadi.

Bu jazo shunday ediki, insonlar uchun anjirni tashini ham, ichini ham yeydigan qilib yaratdi va hech kim uning gullaganini ham ko'rmaydi.

Jiyda daraxtini esa suvdan uzoqroqqa ekadigan bo'ldilar, suvsiz qolsin deb, chunki Odam ato va Havo nomaqbul ish qilganlarida, shu ishlari uchun qaysi

<sup>3</sup> Nasimxon Rahmonov „O'zbek adabiyoti tarixi” Toshkent „Sano-standart” – 2017

daraxtga bormasin yaproq bermadi, Odam yugurib borayotganida jiyda daraxti nayzasi bilan sochini ilintirib oladi, birgina shu ishi uchun ya'ni nopok bo'lgan odamga o'z tanasini tekkizgani uchun . Barcha daraxtlarda ichida o't bor, daraxt suv ichmasa o'sha o't ularni quritib qo'yadi. Olloh taolo jiydani qurib qolmasin deb shu o'tni ketkazganligi uchun ham bu daraxt o'z jazosini suvsiz joyda o'taydi.

Barchamizga xabardor bo'lgan Sora hazratlari haqida so'z olib borsak, bu ayol juda matonatli ayollardan biri hisoblanadi, hech eshitganmisiz birgina ayol farzandli bo'lish uchun 130 yil kutganini , aql bovar qilmaydi, ammo Ollohning inoyati bilan Sora onamizga 130 yoshga kirganlarida bir o'g'il ato etadi. Albatta, minglab payg'ambarlar ham Is'hoq alayhissalom avlodidan tarqalganligini yodimizdan chiqarmasligimiz kerak. Aynan Sora hazratlari Is'hoqni dunyoga keltirayotganlarida Ibrohim payg'ambarimizga Jabroil Is'hoqdan minglab payg'ambarlar tarqalajagi haqidagi xabarni yerkazadi. Ammo Ibrohimning yana bir farzandi bor edi, uning ismi Ismoil edi. Ibrohim Jabroildan Ismoil o'g'li haqida so'rganida sen Ismoilni menga topshirgin deydi, agar Ibrohim alayhissalom unga Ismoil zurriyodini topshirsa, uning evaziga butun dunyolarning yaralishi va 24 ming payg'ambarlarning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan birgina insonni Muhammad s.a.v ning chiqarishini aytadi .

Bu hodisalar qanday go'zal qilib tasvirlanganiga qarang, o'qigan inson maroq va zavq ila o'qiydi.

Xullas Ibrohim alayhissalomdan Is'hoq va Ismoil dunyoga keladi, ammo Ismoilning bitta aybi bor ediki, uning ko'zlari tug'ma ojiz edi. Is'hoq alayhissalom Ruqia ismli bir ayolga uylanadi va ulardan Ya'qub va Ilyos hazratlari dunyoga keladi. Is'hoq hazratlari bir kuni ikki o'g'lidan biriga payg'ambarlik duosi o'qimoqchi bo'ladi, albatta, u suyukli farzandi Ilyosni tanlaydi va unga borib kiyik ovlab, uning go'shtini pishirib olib kelsa, payg'ambarlik duosini o'qishini aytadi. Ammo Ilyos va Ya'qubning onasi bo'lmish Ruqia Is'hoq Ya'qub o'g'luga payg'ambarlik duosini olishini xohlab, Ya'qub hazratlarini otasining qoshiga kiyik go'shti bilan jo'natadi. Shunda Is'hoq Ilyosga emas, balki Ya'qubga payg'ambarlik duosini o'qib qo'yadi. Bu hodisadan keyin Ilyos va Ya'qub orasida adovat chiqmasin deya Ilyosni Rum davlatiga jo'natadi. Shuning uchun Rum xalqi Ilyosning avlodlaridan ekanligi aytib kelinadi.

Bizga qiziq bo'lgan va odamlar orasida keng tarqalgan hikoyatlardan biri bor, bu to'rtta qushning qilgan gunohi va Olloh tomonidan la'natga uchragani haqida. Buni ko'p eshitganmiz, ammo to'laqonli ma'lumotga ega emasmiz. „Qissasi Rabg'uziy“ asarida bu qushlarning qilgan gunohlari va ularning eng oliy jazolari aniq va ravshan ko'rsatilgan.

- Bu qushlardan biri Tovusdir, uning yagona gunohi Jannat ichiga Iblis va Ilonni o'z patlari bilan olib kirgani. Shuning uchun ham Tovus avvalgi go'zal chiroyini yo'qotdi va yerga insonlar kabi surgun qilindi.

- Qarg'a esa Nuh to'fonidan so'ng Olloh uni bu voqealardan xabar olib kelish uchun jo'natganida u yerda ko'plab odamlarning o'liklari yotganini ko'radi, shu o'liklarni

yeyish bilan ovora bo'lib, aytilgan vazifani qilishdan kechikadi. Oллоh to Qiyomatgacha o'limtik yeydi deb la'natlaydi va yerga surgun qiladi. Eng asosiysi Qarg'ani Shayton obraziga o'xshatishadi.

- Yana bir qushlardan biri bu Tovuqdir, uning gunohi shu ediki, u o'z sheriklari bilan Ilyos payg'ambarning kiyimlarini oladi va shundan buyon bir-biriga adovatli bo'ladi. E'tibor bersangiz, bu odat ularda hozirgacha borligini payqaysiz.

- Eng so'nggi qushimizga to'xtaladigan bo'lsak, bu O'rdakdir. O'rdakning yakka-yu yagona aybi u ham Qarg'a kabi kechikkanidir. Barchamizga ayonki, Yunus payg'ambarimiz baliq qorniga tushib ketadi va u yerda qirq kun qolib ketadi. Yunus payg'ambar baliq qornidan chiqqanida shunchalar nozik bo'ladiki, hatto, pashsha qo'nsa uning badani zarar ko'rar darajada bo'ladi.

Shuning uchun Oллоh Yunus payg'ambarni asrash uchun Qovoq daraxtini yaratadi, uning ichida Yunus alayhissalom jon saqlaydi. Bu daraxt qurib qolmasligi uchun O'rdakni unga kafil qilib qo'yadi, ammo o'rdak suv olib kelishda kechikadi. Natijada O'rdak ham bu uchta qush kabi jazolanib yerga to Mahshargacha tushirildi.

Bu to'rtta qushning bunday aybi va jazolanishi Ibrohim payg'ambar va Oллоh o'rtasida bo'lgan suhbatda keltiriladi. Ya'ni Ibrohim alayhissalom o'liklarni yana bir bor tirilishini eshitgandi, ammo yana ham amin bo'lishni xohlaydi va Oллоh unga shu to'rtta jazolangan qushlarni tutib bo'g'izlashni va ularning suyaklarini aralashtirib, to'rtta tog' ustiga qo'yishni aytadi. Shunda bu qushlarni Oллоhning inoyati bilan yana qayta tirilishiga guvoh qilib ko'rsatadi.

Ammo shu hikoyada yana bir istisno beriladiki, nega Oллоh Ibrohim payg'ambarga o'lib tirilish mumkinligini qushlar misolida ko'rsatdi-yu, Uzayir hazratlari o'lib tirilish mumkinmi deganda buni Uzayirning o'z tanasi bilan ko'rsatdi degan sado keladi. Albatta, bu o'rinli savolga shunday javob berilgan, chunki Uzayir Oллоhga shak va shubha bilan so'radi, shuning uchun ham uning o'zini jonini oldi va necha ming yildan so'ng yana hayot baxsh etdi. Ammo Ibrohim esa bunga hech shubhalanmadi, balki amin bo'lishni xohlagani uchun Oллоh unga shu qushlar bilan ko'rsatganini aytadi.

Bu kundek ravshan, chunki kimki Oллоhning ishlariga shubha bilan qarar ekan, albatta, uni Oллоh shu gumon va shubhalari bilan sinaydi.

- „Qissasi Rabg'uziy“ voqealari izchil xronologiyaga asoslangan, har bir qissa ma'lum bir maqsada bo'ysundirilgan. Bu asar inson qalbi va ko'ngliga murojaat etib, uni ma'naviy kamolotga yo'llovchi asardir. Qissalardan ibratli xulosa chiqarish, qissalarda ko'tarilgan qonun-qoidalar, o'gitlarni kitobxonga singdirish ham qissalarning asosiy maqsadidandir.<sup>4</sup>

Haqiqatan ham agarda biror inson bu asarni o'qir ekan, bu dunyoda yaratilgan, vujudga kelgan barcha narsalar haqida chuqur ma'lunotga ega bo'ladi. Uni mutolaa qilish jarayonida bu asar ichida berilgan barcha qissalar musulmon ahli uchun

<sup>4</sup> Nasimxon Rahmonov „O'zbek adabiyoti tarixi“ Toshkent „Sano-standart“ – 2017

eng kerakli bo'lgan va foydali bo'lgan ma'lumotlarni jamlanganligiga yana bir bor amin bo'lasiz. Bejizga bu asar yaratilganiga bir necha asrlar o'tishiga qaramay hozirgi paytgacha kitobxonlarning nazaridan tushmaydi, o'z salobatini yo'qotmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: „Sano-standart” - 2017
2. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. “Yozuvchi”, 1-2-kitob, T., 1990-91.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik 1-tom, 1977.
4. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob, 1969.
5. Fozilov E. Rabg'uziy va uning “Qissasi Rabg'uziy” asari. 1-kitob, 1990.

### **INTERNET SAYTLARI:**

1. [arxiv.uz](http://arxiv.uz)
2. [gazeta.uz](http://gazeta.uz)